



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O'QISH
DARSLARIDA NASRIY ASARLARNI O'QISHNI TASHKIL ETISHNING
NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

Qo'chqorova Shahriniso

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Primary education(boshlang'ich ta'lim)
fakulteti 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7731256>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar uchun sinfdan tashqari o'qish darslarining ahamiyati, dolzarbligi, hamda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni tanlash, topshiriqlarni ishlab chiqish va ularda nutqiy kompetensiyalarni oshirish bo'yicha ayrim tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, metodika, darsdan tashqari o'qish, nasriy asarlar, o'qish texnologiyasi.

Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qish o'quvchida nutqiy malakalarni shakllantirish, dunyoqarashini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlar hisobga olinadi. Ruhshunos olimlarning tekshirishlaridan ma'lum bo'lishicha, asarni idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emotsional-estetik his etish ham kiradi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarning adabiy qahramonlarni idrok etishi va baholashidagi psixologik xususiyatlari o'rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'lishlari aniqlangan:

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat.
2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagi o'quvchilarda chegaralangan bo'ladi, albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko'p ishlatadilar. Qahramonlarning boshqa sifatlarini tasvirlash uchun ularning so'z boyliklari etishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan asarni tahlil qilib, ular





nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emostional sifatlarini tasvirlovchi soʻzlarni kirita borishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biri hisoblanadi. Boshlangʻich sinflar oʻqish darslarini tashkil etish amaliyotida yetakchilik qiluvchi taʼlim texnologiyalaridan asosiysi oʻqituvchi va oʻquvchining birgalikdagi faoliyatiga tayangan hamkorlik texnologiyasidir. Taʼlimning har qanday bosqichida, u boshlangʻich sinflarda boʻladimi, yuqori yoki oliy maktabda boʻladimi, oʻqituvchi bilan taʼlim oluvchi orasidagi munosabatni tashkil etish muammosi barcha davrlarda ham oʻta dolzarb masalalardan biri boʻlib kelgan. Mazkur munosabatlarni hamkorlik darajasiga koʻtarishning nazariy asoslari dunyo miqyosida pedagogik sinergetika doirasida tadqiq etiladi. Bu taʼlim beruvchi uchun ham, taʼlim oluvchi uchun ham oʻz faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etishga oid nazariy yondashuv boʻlib, oʻqituvchi-oʻquvchi munosabatlarini davr talablari darajasida toʻgʻri tashkil etish bilan bogʻliq yangicha dunyoqarashdir. Sinergetika (yunoncha sunergetika – hamkorlik, hamjihatlik) – tizimlarning oʻz-oʻzini mustaqil tarzda tashkil etish nazariyasi, oʻzoʻzini boshqarish, dunyoviy hodisalarni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini mustaqil tarzda bilishga qaratilgan ilmiy yoʻnalish, tafakkur usulidir.¹

Hamkorlikda oʻqitish texnologiyasi Amerika qoʻshma shtatlari, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari taʼlim muassasalarida keng qoʻllaniladi. Tom maʼnoda, pedagogik hamkorlik masalasi hamisha dunyo didaktlari va pedagoglarini qiziqtirib kelgan. Jumladan, rus olimi V. M. Myasishevning qarashlarida shaxs – oʻzaro hamkorlik va boshqalar bilan munosabat asnosida oʻzligini namoyon etishi taʼkidlanadi. Oʻtgan asrning 80 – 90-yillarida B. F. Lomov: —insonning individual xususiyatlari jamoa bilan hamkorlikdagi faoliyati asnosida namoyon boʻladi||, deya taʼkidlagan edi.²

Maktab oʻquvchilarida sinfdan tashqari oʻqish mashgʻulotlari oʻquvchining qiziqish doirasi, dunyoqarashi, psixologik holatidan kelib chiqqan holda tanlanishi lozim. Boshlangʻich sinflarda sinfdan tashqari oʻqish mashgʻulotlari uchun material tanlashning quyidagi jihatlariga alohida eʼtibor qaratish lozim:

1. Asar matni bola yoshiga muvofiq tanlanishi lozim;
2. Asar matni adabiy til normalariga muvofiq, izchil va ravon usulda boʻlishi lozim;
3. Asarda tuyrli grafik belgilar, rasmlar boʻlishi lozim;

¹Азимов Э. Г., Щукин А. . овый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: —ИКАР|, 2009. С. 247

²<https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.





4. Asar matniga muvofiq o'qituvchi tomonidan obrazli o'xshatishlar, misollar keltirilishi lkozim.

Ma'lumki, sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining asosiy salmog'ini ertaklar tashkil etadi. Ertak tanlashda o'qituvchi o'quvchining dunyoqarashini inobatga olishi va unda ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ertaklarni tanlashi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ertaklarni o'qish va ularni to'g'ri tahlil qilish ko'nikmalarining shakllanishi bolada muammo va yechim masalasidagi dastlabki ko'nikmalari shakllanishi yordam beradi. Nasriy asarlarni o'qitishda o'qituvchi turli ta'lium metodlaridan foydalanishi mumkin. Shuningdek, darsning xususiyatidan kelib chiqib metodlar to'g'ri tanlanishi lozim:

Xususan quyidagi ertak matni bo'yicha sinfdan tashqari o'qish topshiriqlarini belgilash tartibini ko'rib chiqamiz:

Cho'pon yigitcha

Bor ekan, yo'q ekan, bir cho'pon yigitcha bor ekan. Uning har qanday savollarga bergan javoblari bilan butun mamlakatda dong'i ketgan ekan. Bu haqda o'sha mamlakatning podshosi ham eshitibdi va bu gaplarga ishonmay, yigitchani o'zining huzuriga keltirishni buyuribdi va unga shunday debdi:

-Agar sen mening uchta savolimga javob bera olsang, men seni o'zimga o'g'il qilib olaman va sen mening saroyimda yashaysan.

-Bu qanday uch savol ekan?

Podsho debdi:

-Mening birinchi savolim, dengizda necha tomchi suv bor?

Cho'pon yigit javob beribdi:

-Podshoyi olam, o'sha dengizga quyilayotgan daryolarning suvini to'xtatish to'g'risida farmon bering, ularning bir tomchisi ham dengizga tushmasin, ana shunda men sizga dengizda necha tomchi suv bor ekanligini aytib beraman.

Podsho davom etibdi:

-Mening ikkinchi savolim, osmonda nechta yulduz bor?

Cho'pon yigit javob beribdi:

-Menga katta bir varaq qog'oz bering, — debdi. U qog'ozga qalam bilan shunchalik ko'p mayda nuqtalarni qo'yibdi-ki, qarasang ko'zlaring qamashib, ularni sanashning hech iloji yo'q ekan. Va u podshoga qarab:

-Mana shu qog'ozda nechta nuqta bo'lsa, osmonda ham shuncha yulduz bor, ularni bir sanab ko'ring-chi, — debdi.

Nuqtalarni sanashni hech kim uddalay olmabdi.

Podsho o'z savollarini davom ettiribdi:



-Mening uchinchi savolim:

-Abadiylikda necha soniya bor?

Cho'pon yigitcha unga javob beribdi:

-Uzoq o'lkalarning birida Ko'hi Qof tog'i bor, uning cho'qqisiga chiqish uchun bir necha kun yurish kerak, uning uzunasi bo'ylab o'tish uchun ham yana bir necha kun yurish zarur bo'ladi va yana bir necha kun o'sha tog'ning uchiga chiqish uchun ham kerak. Tog'ning cho'qqisiga yuz yil mobaynida bitta qushcha bir marotaba uchib kelib, o'zining tumshug'ini qayraydi. U butun tog'ni qayrab tugatganida esa abadiylikning birinchi soniyasi o'tar ekan.

Podsho shunday debdi:

-Sen mening uch savolimga donishmandlarday javob berding, endi men seni o'g'il qilib olaman, sen mening saroyimda yashaysan.

Topshiriqlar:

1. Quyidagi rasmlarga diqqat bilan qarang va ular kim ekanligini izohlang:



1-rasm

Ch				
----	--	--	--	--



P				
---	--	--	--	--

2-topshiriq. Cho'pon va podshoh so'zlari bilan bog'liq gaplar tuzib ko'ring:

Masalan: O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l...

Shoh mamalakatni boshqaradi. Cho'pon mol va qoo'ylarni boqadi.

3-topshiriq. Podshohning shartlariga siz qanday javob bergan bo'lardingiz?

dengizda necha tomchi suv bor _____


osmonda nechta yulduz bor _____

Abadiylikda necha soniya bor _____

Ushbu topshiriqlar asosida bola ertakni qayta o'qib chiqsa va toipshiriqlarni bajarsa, unda sinchkovlik, mantiqiy mushohada yuritish qobiliyati shakllanib boradi. Qolaversa, bolada kitobxonlik madaniyati shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda ibratli hikoyat va rivoyatlarning ma'naviy va ahloqiy tarbiyaning kamol topishida o'rnini yuqori. Shu boisdan turli hajmdagi kichik hikoya va rivoyatlarni o'qish bolada axloqiy tamoyillarning shakllanishiga yordam beradi. Sinflar kesimida darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini darajalanishni inobatga olgan holda quyidagicha tashkil qilish mumkin:

3.1.1-jadval. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish uchun asar janrlari



Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).
2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, syujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni ta'minlaydi.
3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.
4. Sinfdan tashqari o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.³

³ Tursunova E. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish ustida ishlash // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. 11-son.

Har qanday nasriy matnni o'qitishda ushbu mezonlarga amal qilinishi lozim. Shuningdek, nasriy matnlarda so'z boyligini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Asar matnida uchrovchi so'zlarni izohlash, ularning qo'llanilishini o'quvchiga tushuntirish nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kichik masallarni sinfdan tashqari o'qishga tanlashda quyidagi yondashuvga tayanish mumkin:

Echki va podachi

Podachi adashib qolgan Echkini podaga qaytarib kelish uchun rosa qidiribdi. U hushtak chalibdi, surnay chalibdi. Ammo bularning foydasi bo'lmabdi: orqada qolib ketgan Echki bu tovushlarga ahamiyat bermabdi. Oxiri, podachi unga tosh otibdi, Echking shoxi sinibdi. Shunda podachi Echkidan bu haqda xo'jayiniga aytmalikni iltimos qilibdi.

Echki shunday deb javob beribdi:


— Ey, esi yo'q odam, men indamaganim bilan shoxlarim hammasini aytib qo'yadi-ku!

Qissadan hissa: Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.

poda-ot, qo'y, mol galasi, to'dasi;

Podachi- ot, qo'y, mol galasi, to'dasini boshqaruvchi odam.

Kasal so'zini biz quyidagi so'zlar bilan ham ifodalashimiz mumkin:



Savollar:

1. Podachi nima uchun echking shoxini sindirib qo'ydi?
2. Podachi nima uchun xo'jayiniga aytmalikni iltimos qildi?



3. Echki podachiga qanday javob berdi?

4. Kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi maqolida nimani tushundingiz?

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlariga turli asotirlar, maqollar, topsihmoqlarni o'qish, ularni qayta hikoya qilish yoki yodlash topshiriqlarini berish ham mumkin.

Sinfdan tashqari o'qish nafaqat bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga, bali ularda mantiqiy mushohada yuritish, kitobga muhabbat, ezgu fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan muhim vositalardan biri. Shu bois maktab darslarida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlariga alohida urg'u berish muhim ahamiyat kasb etadi. Asar bilan tanishtirish uchun rasmlardan, turli tasvirlardan, animatsion roliklardan yoki multfilmalaridan foydalansih mumkin. Bu esa bolada asarni o'qib ko'rishga ishtiyoqni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Turli didaktik rivoyatlar, hikoyatlar, topishmoq, metal va masallar o'quvchida ahloqiy me'yorlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday bola dunyoni o'z aql prizmasida idrok etadi. Bu idrok kitoblar orqali boyitilsa, o'quvchining mantiqiy fikrlashi, mushohada yuritishi oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азимов Э. Г., Щукин А. . овый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: –ИКАР||, 2009. С. 247
2. Tursunova E. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish ustida ishlash //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar.11-son.
3. Дилова Н.Г. (2021). Педагогик ҳамкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкил этиш тамойиллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 547-557 бетлар.
4. Расулова З. (2021). Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий маҳоратини ошириш йўллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 416-426 бетлар.
5. Abduhodirov A.A va boshq. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Iste'dod jamg'armasi, 2008, - 45 b

